Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

**Swiss Agency for Development and Cooperation SDC**
**Shvetsariya taraqqiyot va hamkorlik Agentligi SDC**

SUPPORT TO VET REFORMS IN UZBEKISTAN
SWISS PROJECT
VET4UZ

HELVETAS
UZBEKISTAN



# SHVETSARIYANING "OʻZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM ISLOHOTINI QOʻLLAB-QUVVATLASH" LOYIHASI

# ШВЕЙЦАРСКИЙ ПРОЕКТ «ПОДДЕРЖКА РЕФОРМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ»

# SHVETSARIYA DUAL PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA XUSUSIY SEKTORNING ROLI

- **Dual professional ta'lim tizimida xususiy sektor muhim rol o'ynaydi.** Qabul qiluvchi kompaniyalar ixtiyoriy ravishda shogirdlik lavozimlarini taqdim etadilar va shogirdga ish haqi to'laydilar (ish haqi har yili bosqichma-bosqich oshiriladi 3 yillik davr mobaynida). Ular hatto eng yaxshi shogirdlarni olish uchun raqobatlashadilar.

- Professional ta'limda talabalardan **korxonada o'qitish uchun to'lov olinmaydi.** Aksincha, shogirdlik davrining birinchi kunidan boshlab ularga minimal ish haqi to'lanadi (faoliyat sohasiga qarab o‘rtacha ish haqining 10-20 foizi). Shogirdlarning oylik maoshi hudud, soha va ish joyiga qarab farqlanadi. Odatda, ish haqi faoliyatining birinchi yilida oyiga 500 dan 700 frankgacha, ikkinchi yilida 700 dan 900 frankgacha, uchinchi yilida esa 900 dan 1100 frankgacha bo‘ladi. Biroq, tavsiya etilgan oylik maoshlar birinchi yilda eng kami 400 frankdan (grafik dizayner, fotosuratchi, tikuvchi) boshlanib 1160 frankga (fermer) yetishi mumkin va uchinchi yilga kelib 2324 frankgacha (bino poydevorini quyuvchi) ko‘tarilishi mumkin.





- Oylar/yillar davomida asta-sekin o'sib borayotgan shogirdlarning mehnat samaradorligi tufayli professional ta'lim **qabul qiluvchi kompaniyalar uchun foydalidir.**

- Mezbon kompaniyalar ham **ishga yollash xarajatlarini kamaytirishi** mumkin, chunki shogirdlar ko'pincha o'qishni tugatgandan so'ng kompaniyada qolishga qaror qilishadi.

- Professional ta'lim tizimini joriy etish davlat, xususiy sektor va professional ta'lim muasasalarini jalb qilgan holda **jamoaviy boshqaruvni** nazarda tutadi, bu majburiyat va umumiy mas'uliyatga olib keladi.








- **Davlat mezbon kompaniyalarga shogirdlar tayyorlash uchun bevosita subsidiya bermaydi.** To'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar bilan bog'liq xavf shundaki, kompaniyalar subsidiyalash to'xtatilishi bilanoq shogirdlik lavozimlarini taklif qilishni to'xtatadilar.

- Shvetsariyaning dual professional ta'lim tizimi "fanga asoslangan" o'quv dasturlariga emas, balki **kompetensiyaga asoslangan yoki natijalarga asoslangan** o'quv dasturlariga tayanadi.

- **Professional ta'lim o'quv dasturlarini yaratish va yangilashda** xususiy sektor muhim rol o'ynaydi. Ular o'quv dasturlarini yangilashga mas'ul bo'lgan kanton darajasidagi mahalliy hokimiyatga mehnat bozoridagi tendensiyalar va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj to'g'risida ma'lumot beradi.

- Qabul qiluvchi kompaniyalarda sohada kamida 2 yillik tajribaga ega va kamida 40 soatlik qisqa pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan **trenerlar bo'lishi kerak.**

- Bitiruvchilar mehnat bozori uchun kerak bo'lgan ko'nikmalarga ega ekanligiga ishonch qilish maqsadida xususiy sektor vakillari (odatda bitta yoki ikkita ekspert) professional ta'lim muassasasi o'qituvchilari bilan birgalikda bitiruvchilardan **yakuniy imtihon olish jarayonlarida ishtirok etadi.**

# РОЛЬ ЧАСТНОГО СЕКТОРА В ШВЕЙЦАРСКОЙ СИСТЕМЕ ДУАЛЬНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

- **Частный сектор играет жизненно важную роль в системе дуального обучения.** Компании участвующие в профессиональном образовании и обучении (ПОО) добровольно предоставляют ученические места и платят учащимся (постепенное повышение заработной платы каждый год в течение трех летнего периода). Более того, существует конкуренция между компаниями на привлечение наиболее одаренных учащихся.

- **Плата за обучение учащихся не взимается.** Напротив, с первого дня обучения платят им минимальную заработную плату (10-20% от средней заработной платы в зависимости от сферы деятельности). Заработная плата учеников варьируется в зависимости от региона, отрасли и должности. Обычно заработная плата колеблется между 500 и 700 франками в месяц в течение первого года ученичества, 700 и 900 франками в течение второго и между 900 и 1100 франками в течение третьего года. Иногда, рекомендуемая месячная заработная плата может начинаться от 400 франков (графические дизайнеры, фотографы, портные) и достигать 1160 франков (фермеры) в первый год и 2324 франков в месяц (укладчики фундамента зданий и сооружений) в третий год.



- **ПОО выгодно** для участвующих компаний, которые видят в нем возможность улучшения производительности труда кадров в течении месяцев/лет.

- Участвующие компании также могут **сократить свои расходы** на подбор качественного персонала, поскольку учащиеся часто решают продолжать свою деятельность в компании после окончания учебы.



- Внедрение системы ПОО подразумевает **коллективное управление** с участием правительства, частного сектора и школ ПОО, что ведет к приверженности и совместной ответственности.



- **Правительство напрямую не субсидирует компании для обучения.** Риск, связанный с прямыми субсидиями, заключается в том, что компании перестанут предлагать места для обучения, как только прекратится субсидирование.

- Учебные планы и программы Швейцарской формы дуального образования **основываются на компетенциях** и результатах обучения, а не на "предметных" учебных планах. Частный сектор является ключевым определителем востребованных компетенций.



- Частный сектор призван сыграть важную роль **при создании и обновлении учебных программ ПОО.** Он указывает правительству, ответственному на кантональном уровне за обновление учебных программ, на тенденции и соответствующие компетенции на рынке труда.

- Участвующие компании **должны иметь инструкторов** на рабочем месте с опытом работы в данной области не менее 2 лет и короткой педагогической подготовкой продолжительностью около 40 часов.




- Частный сектор также **участвует в процессе итоговых экзаменов** (обычно один или два эксперта) наряду с преподавателями из школы ПОО, чтобы убедиться, что кандидаты обладают соответствующими компетенциями для рынка труда.

Loyiha Shvetsariya hukumati tomonidan
moliyalashtiriladi va Helvetas Uzbekistan
tomonidan amalga oshiriladi

Проект финансируется Правительством
Швейцарии и реализуется Хельветас
Узбекистан